

## GLOBALLASHUV SHAROITIDA ZAMONAVIY AXBOROT VOSITALARI VA YOSHLAR MA'NAVIY-TARBIYASI

Qurbonova Feruza Ergashevna

Respublika o'rta tibbiyot va farmasevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni  
ixtisoslashtirish markazi Jizzax filiali

Ma'naviyat va marifat ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada globallashuv sharoitida dunyoning barcha mintaqalarida yashayotgan odamlar ongiga barcha turdagi axborotlarning turli vositalar va usullar orqali kirib borishi hamda uning ta'siri masalalari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** madaniy meros, qadriyat, ta'lim, ta'lim tizimi, ommaviy axborot vositalari, kutubxonalar, turizm muassasalari.

### СОВРЕМЕННЫЕ ИНФОРМАЦИОННЫЕ СРЕДСТВА В КОНТЕКСТЕ ГЛОБАЛИЗАЦИИ В ДУХОВНОЕ ВОСПИТАНИЕ МОЛОДЕЖИ

Курбонова Феруза Эргашевна Республиканский центр повышения квалификации и специализации средних медицинских и фармацевтических работников Джизакский филиал Заместитель директора по делам духовности и просветительства

**Аннотация:** В статье рассматривается влияние всех видов информации, поступающей в сознание людей, живущих во всех регионах мира, посредством различных средств и методов в контексте глобализации.

**Ключевые слова:** культурное наследие, ценность, образование, система образования, средства массовой информации, библиотеки, туристические учреждения.

### MODERN INFORMATION MEDIA AND SPIRITUAL EDUCATION OF YOUTH IN THE CONDITIONS OF GLOBALIZATION

Kurbanova Feruza Ergashevna Jizzakh branch of the Center for advanced training and specialization of secondary medical and pharmaceutical personnel of the Republic Deputy director for spirituality and healing Affairs

Abstract: This article discusses the penetration of all types of information into the minds of people living in all regions of the world through various means and methods and its impact in the context of globalization.

Keywords: cultural heritage, value, education, education system, mass media, libraries, tourism institutions

Bugun barchamiz axborot asrida, qolaversa ulkan kompyuter va internet texnologiyalari taraqqiy etgan davrda yashamoqdamiz. Aslida axborot deganda biron voqea haqidagi batafsil xabar, ma'lumot tushuniladi. Davlatlar o'rtasidagi muzoqaralar natijasida tuzilgan bitim yoki shartnoma to'g'risida hukumatning rasmiy xabari ham aslida axborot deb ataladi. Xalqaro huquqda ikki va undan ortiq davlatlar o'rtasida olib boriladigan diplomatik muzokaralar natijasida tuzilgan bitimlar, shartnomalar yoki qabul qilingan boshqa qarorlar haqidagi xabar ikki yoki

undan ortiq davlatlar tomonidan rasmiy e'lon qilinishi ham ma'lum axborotlarga asoslanadi. Insoniyat tarixining uchinchi ming yillikka qadam qo'yishi jamiyat taraqqiyotida ikki tendensiyani namoyon qilmoqda:

**birinchisi** – inson mohiyatini tashkil qiladigan mezonlar tizimida, uning intellektual salohiyati, axborotlar arsenali, texnik-texnologik imkoniyati g'oyat rivojlanib, yangi ma'naviy qadriyatlar shakllanishi bilan xarakterlanadi;

**ikkinchisi** – inson ongida, amaliy turmush tarzida, uning mohiyatiga yot g'ayriaxloqiy xatti-harakatlar (o'z turiga, jamiyatga, tabiatga nisbatan agressivlik) va ruhiy tushkunlik kayfiyati kuchayib, axloqiy inqirozlarning belgilari ko'zga yaqqol tashlanmoqda.

Mamlakatimizda oxirgi yillarda yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalash, ularning hayotga mustaqil qadam qo'yishlari uchun barcha zarur sharoitlarni yaratish, huquq va manfaatlarini ta'minlash kabi muhim masalalar davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev 2020-yil 23-sentyabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida nutq

soʻzlab, Yoshlar huquqlari toʻgʻrisidagi Birlashgan Millatlar Tashkilotining konvensiyasini qabul qilish boʻyicha Oʻzbekiston tashabbusini yana bir bor ilgari surdi. Ushbu tashabbus har bir davlatning yoshlar taqdiri va ularning porloq kelajagi borasida masʼuliyatni oʻz zimmasiga olishi kerakligini nazarda tutadi. Hozirgi kunda Oʻzbekiston aholisining 60 foizdan ortigʻini (qariyb – 18 mln.) kuchli va shijoatli yosh fuqarolar tashkil etadi. Shu sababdan ham, yoshlar siyosati davlat taraqqiyotining uzluksizligini taʼminlashga qaratilgan barcha strategiya va dasturlarida alohida oʻringa ega. Respublikada yoshlarga oid davlat siyosatining huquqiy asoslarini mustahkamlash maqsadida 2017 – 2020 yillarda 5 ta qonun va 50 gʻayaqin qonunosti hujjatlari, shu jumladan, «Yoshlarga oid davlat siyosati toʻgʻrisida»gi Oʻzbekiston Respublikasi qonuni qabul qilindi. Oʻzbekiston tarixida ilk bor 30 iyun —Yoshlar kunii deb eʼlon qilindi hamda —Oʻzbekiston Respublikasida yoshlar kunini belgilash toʻgʻrisidalgii qonun qabul qilindi. Shu bilan birga, Respublika darajasida Bosh vazir rahbarligida, hududlarda esa hokimlar raisligida Yoshlar masalalari boʻyicha Idoralararo Kengashlar faoliyati yoʻlga qoʻyildi.

Axborot-kommunikasiya texnologiyalari, Internet-resurslar va tarmoq kommunikasiyalari shiddat bilan rivojlanishi hamda mamlakatda axborot jamiyatining faol shakllanishi Oʻzbekiston yoshlarida madaniy va boshqa qadriyat tushunchalarini baholashning yangi mezonlarini yuzaga keltirmoqda. Bunday omillar ayrim tuzilmalar va nodavlat tashkilotlarining turli maʼrifiy va madaniy dasturlar hamda loyihalarni targʻib qilish orqali yoshlar ongiga oʻzbek mentalitetiga xos boʻlmagan gʻoyalarini singdirish boʻyicha keng koʻlamli ishlarni amalga oshirishga boʻlgan geosiyosiy intilishini belgilab berdi. Tashqi mafkuraviy oʻzgarishlar taʼsiriga tushmaydigan, jamiyat va davlat oldida javobgarlikni oʻz zimmasiga olishga qodir boʻlgan yetuk shaxsni tarbiyalashda, shuningdek, yosh avlodda oʻzbek mentalitetiga xos boʻlgan yangi xulq-atvor meʼyorlarini shakllantirishda davlat tashkilotlari va nodavlat institutlarning roli ortib borayotganligini hisobga olish va yangicha yondashuvlarni qoʻllash zarurati mavjud.

Hech kimga sir emaski, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Mirzo Ulug'bek, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Imom Buxoriy va boshqa ko'plab buyuk bobokalonlarimiz yashagan davrlarda faqatgina sham yorug'ligi va sodda ilmiy vositalar yordamida yuksak salohiyatli asarlar yaratilgan. Biz yashayotgan davrda bo'lsa barchamiz uchun axborot va kommunikatsiya texnologiyalarining eng so'nggi mahsulotlaridan foydalanish imkoniyati mavjud.

Axborotlashuv va globallashuv jarayonlari, taassufki, faqat moddiy manfaat va ehtiyojlarini qondirishga intiladigan, milliy qiyofasini qariyb yo'qotgan, o'z maqsadi yo'lida har qanday g'oyani qo'llashga tayyor toifalarni ham vujudga keltirdi. Bunday salbiy holat mamlakatimiz aholisi, ayniqsa, yoshlarimizga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. Ana shu tahdidni bartaraf etish uchun bor imkoniyatni ishga solgan holda izchil kurashmoq zarur. Bugungi kunda inson ma'naviyatiga qarshi yo'naltirilgan, bir qarashda arzimas tuyuladigan kichkina xabar ham axborot olamidagi globallashuv shiddatidan kuch olib, ko'zga ko'rinmaydigan, lekin zararini hech narsa bilan qoplab bo'lmaydigan ulkan ziyon etkazishi mumkin.

Demak, hozirda har bir axborot chegara bilmaslik xususiyatiga ega ekan, ongi va dunyoqarashi endigina shakllanayotgan yosh avlodning ma'naviy olami daxlsizligini asrash ko'pchilikni o'ylantirishi darkor. Internetni cheklab qo'yish yoki axborot olishni taqiqlash bilan muammo hal bo'lmaydi. Hayotni ham ommaviy axborot vositalarisiz tasavvur qilish qiyin bo'lgan hozirgi sharoitda internet yoshlar uchun asosiy axborot manbaiga aylanayotir. Ammo, G'arb madaniyatiga taalluqli ba'zi ko'rsatuv va saytlar borki, ular mutlaqo axloqqa ziddir. Bunday axborot yoshlarimiz xulqi va dunyoqarashiga salbiy ta'sir qilishi aniq. Ayni o'rinda yana bir fikrni aytib o'tish joiz. Oynai jahonl seriallar bilan to'lib-toshgani, bizningcha, ijobiy hol emas. Chunki yoshlar asosiy vaqtini shu seriallarni ko'rishga sarflashi ta'lim sifatiga ta'sir qilmay qolmaydi.

Xulosa qilib aytganda, axborot madaniyatini shakllantirish masalasi jamiyat rivoji bilan bevosita bog'liq bo'lganligi sababli u mamlakat miqyosida ijtimoiy

ahamiyatga molik masaladir. Shu sababli globallashtirish jarayonining barcha sohaga oid jihatlarini o'rganish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Hozirgi paytda millat va davlatning eng muhim resurslaridan biri insonlarning aqliy salohiyati va bilim darajasi hisoblanadi. Ijtimoiy taraqqiyot, avval tasavvur etib kelinganidek, yuqori turmush darajasiga erishgan yoki zamonaviy texnika ishlab chiqarishni yo'lga qo'ygan mamlakatlar emas, balki ta'lim va tarbiyaning yanada yuqori darajasini ta'minlashga erishgan mamlakatlar tarix sahnasining old qatorlariga chiqayotganligini ko'rsatmoqda.

#### Adabiyotlar ro'yxati

1. Абдувахобова Д.Э. Взаимоотношения подростка со сверстниками: умеет ли он дружить? Innovations in technology and Science Education. 2022.
2. Кадырова М.К. Познавательные мотивы подростка в процессе обучения. Молодой учёный. 2015-7.-614
3. Эргашев У.Э. Формирование умений и навыков в учебной работе. Молодой учёный.762-769.2014.
4. Кадырова М.К. Поведение человека в трудных ситуациях. Актуальные вопросы современной психологии. 17-20. 2017.
5. Кадырова М.К. Особенности периода взросления подростка. Молодой ученый 2016 - 999-1002 стр.
6. Эргашев У.Э. Мотивы учения в подростковом возрасте. Молодой учёный.2015 -7.-702
7. Абдувахобова Д.Э. Использование ИКТ в образовании – важный фактор развития информационного общества. Экономика и социум. 2023
8. Абдувахобова Д.Э. Использование информационно коммуникативных технологий в процессе обучения иностранным языкам. 155-158. 2022
9. Абдувахобова Д.Э. Важность инновационных технологических факторов в повышении знаний студентов. ББК 81.2-5 Т-307,212
10. Зияева М.Ф. Таълим жараенида маънавий-маърифий ишларни самарали ташкил этиш йуллари, шакл, метод ва воситалари. Образование и инновационные исследования. Межд. Науч. журнал 2021